

TURKISTONDA JADIDCHILIK HARAKATI PAYDO BO‘LISHI VA UNING KENG TARQALISHI

Allanazarov Shoxruxbek Qurbon o‘g‘li

Qarshi davlat universiteti iqtisod fakulteti turizm yonalishi 3 - kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Turkistonda jadidchilik harakatining paydo bo‘lishi, rivojlanishi va uning ta’lim hamda ijtimoiy hayotga ta’siri yoritilgan. Jadidchilik XIX asr oxiri – XX asr boshlarida eski maktab tizimining o‘rniga yangi, ilg‘or usullarni joriy qilishga intilgan harakat sifatida shakllandi. Maqolada Ismoilbek Gaspirali va boshqa jadidlarning ma’rifatparvarlik faoliyati, yangi usuldagagi maktablarning ochilishi va ularning jamiyatga ta’siri haqida ma’lumot berilgan. Shuningdek, jadidchilikning Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o‘rni ham tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Jadidchilik, Ismoilbek Gaspirali, jadid maktablari, usuli savtiya, ma’rifatparvarlik, Turkiston, milliy ong, ta’lim islohoti, mustamlakachilik, istiqlol harakati.

19-asrning ikkinchi yarmida Osiyoning ma’lum hududlarida bilim va texnologiyaning rivojlanishi uzoq g’arb yurtlariga nisbatan ancha sust ketgan edi. Bilimsizlik va qiyin sharoitlar tufayli mahalliy aholi qiyinchiliklarga duch kelgan, bu esa dunyodagi taraqqiyotdan ortda qolishiga sabab bo‘lgan. Ushbu holatdan chiqish va erkinlik sari intilish masalasi o‘z davrining ilg‘or fikrlari insonlari orasida dolzarb mavzulardan biriga aylangan edi.

XX asr boshlarida qirim-tatar marifatparvari bo‘lgan, zamонавиј та’лим тизимини targ‘ib qilgan va “Tarjimon” jurnalining rahbari Ismoil Gaspirali sharqda juda katta e’tibor qozongan edi. U, mavjud o‘qitish usullaridan farqli ravishda, ancha yengil va tez o‘zlashtiriladigan uslubni joriy qilgan yangi ta’lim maskanini Qirimdagi Boqchasaroyda ochib, bu sohada ilg‘or fikrlarni yoyishga harakat qilgan. O‘z asarlari orqali u, jamiyatda keng muhokama qilinayotgan masalalarga ta’sir ko‘rsatgan va bu yo‘nalishdagi o‘zgarishlarga turtki bergan. Qisqacha aytganda, u, zamонавиј та’лим тизимining shakllanishida muhim o‘rin tutgan. Uning bu harakatlari Turkiston ziyorolarining dunyoqarashlariga katta ta’sir ko‘rsatgan. Umuman aytganda u Markaziy Osiyoda yangi usul maktablarining paydo bo‘lishiga namuna bo‘la oldi.

Ba’zi ilg‘or tafakkur egalari 19-asr oxiri va 20-asr boshlarida o‘zgarishlarga turtki beruvchi harakat sifatida tarix sahnasida paydo bo‘la boshladilar. Ular, hukmron tuzumning ayrim siyosiy yo‘nalishlariga ta’sir o‘tkazishga urinib, jamiyatda ma’rifat, taraqqiyot va yangilanish g‘oyalarini ilgari surishga harakat qilishdi.

Turkiston mintaqasida yangi qarashlar bilan ajralib turuvchi ta’lim tizimi shakllanib, bu nafaqat bilim targ‘ibotchilari balki jamiyatning boshqa qatlamlari e’tiborini ham tortdi. Ular faqatgina ta’lim tizimining rivojlanishini emas, balki tarixiy va madaniy qadriyatlarning asrashini ham maqsad qilib oldilar.

Chor mustamlakachilar O’rta Osiyoda ochilgan yangi usul maktablariga qarshi kurash boshlaydi, bu maktablarni «islomiyatga qarshi», «g’ayridin maktablar» deb tashviqot yuritadilar, joususlik idoralarini ishga soladilar, hatto Buxoro amiriga va Xiva xoniga ham kuchli tazyiq o’tkazganlar. Ahvol shu darajaga borib yetganki, bu masala bilan bog‘liq ko‘plab qurbanlar yuz beradi. Chor ma’murlari islom diniga ham qarshi kurashni kuchaytirib yuboradilar. Hattoki, 1903-yili podsho Turkiston aholisi uchun muborak Haj qilishni ham farmon bilan man etib qo‘yadi. Bu mahalliy muslimmon aholisida kuchli norozilik uyg‘otgan. 1905-yilgi to’ntarish harakatidan keyin Rossiya hududidagi turkiy xalqlar va ularning Turkiya bilan qardoshlik aloqasi kuchayadi. O‘z davrida Turk dunyosi markazlaridan biri bo‘lgan Qrim, Qozon, Istanbulda chop etilgan jadidchilik ruhidagi adabiyotlar Turkistonga keng yoyila boshladi. Yuqorida aytganimizdek Markaziy Osiya hududida yangin usul “jadidchilik” harakatiga qirim –tatar marifatparvari Ismoilbek Gaspirali katta hissa qo‘shgan. Ismoilbek 1893 yilda Toshkentga keladi va ziyoli ulamolar bilan uchrashadi. Samarqandda bo‘ladi. U yerdan Buxoroga borib, amir Abdulahadni jadid maktabi ochishga ko‘ndiradi va Mo‘minxo‘ja Vobkendiy va g‘ijduvonlik Domla Fozil sa’y-harakati bilan dastlabki yangi usul maktabi ochildi. Bu maktabga «Muzaffariya» degan nom berildi.

Turkistonlik ziyorilar jadidchilikni yoqlab maorifni isloh qilish, «usuli jadid» maktablarini tashkil etishni targ‘ib qildilar. Birinchi bunday maktab (Husaynxo‘ja mablag‘i hisobiga) 1893 yili Samarqandda, 1898 yili Buxoroda Salohiddin domla tomonidan, o‘sha yil To‘qmoqda (o‘zboshimcha ravishda) va boshqa hududiy maktablarda «no‘g‘oy maktab» deb atalgan, 1899 yili esa Toshkentda Mannon Qori, Andijonda Shamsiddin domla tomonidan jadid maktablari ochildi. 1900 yili Buxoroda Jo‘raboy qori tomonidan yangi usuldagagi maktab ochildi. 1903 yili M. Behbudiy o‘z mablag‘i hisobidan Jomboyda maktab ochdi. Jadid Hoji Muin va Abdulqodir Shakuri ular bu maktabda saboq berdilar. 1907 yili To‘raqo‘rg‘on (Namangan viloyati)da Isxoqxon to‘ra Ibrat tomonidan yangi usul maktabi ochgan. 1908 yili bunday maktablarni Mirza Abdulvohid ham tashkil qildi. Muftiy domulla Ikrom bu yangi usuldagagi maktablarni diniy jamoat tomonidan qabul qilinishiga erishdi. 1911 yilda jadid maktablari Turkistonda 63 ta bo‘lib, ularda 4106 bola o‘qigan. Toshkentning o‘zida 24 ta bunday maktablarda 1740 bola o‘qigan. 1917 yil boshlarida o‘lkada 100 ga yaqin jadid maktablarida 5 mingdan ziyod o‘quvchi bo‘lgan.

Jadid maktablarida matbuot va yangi usul maktablarida diniy va dunyoviy ta’lim – yangi usulidan sinfda dars berish usuliga o‘tildi, sinflarda partalar, geografiya xaritalari, globus va boshqa ko‘rgazmali qo‘llanmalar paydo bo‘ldi. Ularda xat – savod bolalarning ona tilida tovush usuli – usuli savtiyada o‘rgatilgan. Jadid maktablarida Qur’oni – karim, matematika, geografiya, ona tili, rus, arab tillari, ashula va hatto jismoniy tarbiya o‘qitila boshlandi.

Jadidchilik harakati Turkistonda XIX asrning oxirida quruq madaniy – ma’rifiy harakatning, ya’ni eski maktablarning qiyin o‘qitish tizimiga nisbatan yengil tovush usuliga asoslangan yangi uslub (metod) asosida o‘qitishga o‘tishdangina iborat emasdi, ayni choqda turk – islom huquqiy munosabatlarining millatga o‘rgatilishi, milliy – ma’rifiy, taraqqiyot

va milliy istiqlol muammolarini ham o’z ichiga olgan edi. Bu harakatning vujudga kelishida O’rta va Yaqin Sharq mamlakatlarda keng qoloq yoyib rivojlangan turli oqimlar va Turkiyadagi «Ittihod va taraqqiy», «Yosh turklar» harakatining ta’siri katta bo’ldi.

Jadidchilik harakati jadid adabiyotining asoschilari bo’lgan yirik iste’dod egalari – jadid adibi, shoiri, dramaturgi va san’ati arboblarini ham tarbiyaladi. Jadidshunos taniqli olim professor Begali Qosimovning ta’kidlashicha, ularning 1905–1917 yillarda adabiy-madaniy harakatchilikda qizg‘in faoliyat ko’rsatganlari saksondan ortiq bo’lgan Mahmudxo’ja Behbudiy (1875–1919), Saidahmad Siddiqiy Ajziy (1864–1927), Vasiliy Samarqandiy (1869–1925), Munavvarqori Abdurashidxonov (1878–1931), Abdulla Avloniy (1878–1934), To’lagan Xo’jamyorov Tavallo (1882–1939), Sidiqiy Xondayliqiy (1884–1934), Avaz O’tar o’g‘li (1884–1919), Muhammadsharif So‘fizoda (1869–1937), Abdurauf Fitrat (1886–1938), Sadriddin Ayniy (1878–1954), Abdulvohid Burxonov (1875–1934), Hamza Hakimzoda Niyoziy (1889–1929), Abdulla Qodiriy (1894–1938), Abdulahad Cho’lpon (1897–1938) va boshqalar shular jumlasidandir .

Turkistonda jadidchilik harakati XIX asr oxiri va XX asr boshlarida mahalliy jamiyatning yangilanishi va taraqqiy etishida muhim rol o‘ynagan. Ushbu harakatni ilgari surgan ma’rifatparvarlar ta’lim tizimini isloh qilish, milliy ongni uyg‘otish va zamonaviy bilimlarni yoyish orqali xalqning intellektual salohiyatini oshirishga harakat qilganlar. Ismoilbek Gaspiralining ilg‘or g‘oyalari Turkiston ziyolilari orasida keng tarqalib, yangi usul maktablari ochilishiga, jadid adabiyoti va matbuotining rivojlanishiga sabab bo’ldi. Jadidchilik harakati nafaqat madaniy-ma’rifiy sohada, balki ijtimoiy va siyosiy jihatdan ham sezilarli ta’sir ko’rsatdi. Mustamlakachilik sharoitida yashagan Turkiston xalqi uchun jadidchilik mustaqillik va milliy uyg‘onish yo‘lidagi harakat sifatida namoyon bo’ldi. Jadid maktablari eski ta’lim tizimidan farqli ravishda, ilg‘or pedagogik usullarni joriy qilib, yosh avlodni zamonaviy ilm-fan bilan tanishtirdi. Biroq, chor Rossiyasi va mahalliy mustabid kuchlar jadidchilik harakatining rivojlanishiga qarshi turib, uni bostirishga harakat qildilar. Shunga qaramay, jadidlarning sa’y-harakatlari o’z samarasini berib, Turkiston hududida ilm-ma’rifatning rivojlanishiga, matbuot va adabiyotning taraqqiy etishiga katta ta’sir ko’rsatdi.Jadidchilik harakatining ta’siri bugungi kungacha sezilib, uning asosiy g‘oyalari milliy o’zlikni anglash, ta’lim va ilm-fanni rivojlantirish hamda jamiyatni modernizatsiya qilish kabi masalalarda o’z ahamiyatini yo‘qotmagan. Shunday qilib, jadidchilik Turkiston tarixida ulkan burilish nuqtasi bo’lib, mintaqaning ma’rifiy va madaniy yuksalishiga asos solgan harakat sifatida muhim o‘rin tutadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Qosimov B. Jadidchilik harakati va adabiy jarayon. – Toshkent: Fan, 2008.
2. Abdurahmonov A. Jadidchilik: Taraqqiyot va ma’rifat yo‘li. – Toshkent: O‘zbekiston, 2010.
3. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2000.
4. Fitrat A. Jadidchilik va uning asoslari. – Toshkent: Sharq, 1998.

5. Ziyo K. Turkistonda jadidchilik harakati. – Samarqand: Zarafshon, 2012.
6. Gaspirali I. Rossiya musulmonlari va ta’lim islohoti. – Qozon: Idil, 1905.
7. Usmonov Q. Jadidchilik va mustamlakachilik siyosati. – Toshkent: Universitet, 2015.
8. Karimov S. O’zbek jadidchilik harakati tarixi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.
9. O’zbekiston tarixi R.Shamsuddinov, H.Mo’minov “ Andijon”. 2011,-b,306-307
10. O’zbekiston tarixi (1-qism) T. “Universitet”,1997.